O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISTE’MOL NARXLARI INDEKSI



2023- yil
Oktabr

**Iste’mol narxlari indeksi (INI)** iste’mol sektoridagi inflyatsion jarayonlarning asosiy indikatori sifatida alohida o‘rin egallab, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashda hal qiluvchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

## OKTABR OYIDAGI YIG‘MA INI, % da

o‘tgan oyga nisbatan




2023- yilning oktabr oyida oylik yig‘ma INI **101,0 %** ni, 2022- yilning dekabriga nisbatan **106,2 %** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatda (o‘tgan yilning oktabriga nisbatan) yig‘ma INI **109,0 %** darajasida qayd etildi.

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




o‘tgan yilning oktabriga nisbatan




INI o‘rtacha oylik o‘sish sur’ati 2023- yilning yanvar-oktabrida **0,6 %** ga yetdi. Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichdan 0,3 foiz bandga va 2021- yilning yanvar-oktabridagiga nisbatan 0,1 foiz bandga past bo‘ldi.

**2023- yilning sentabr oyida Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlaridagi uyg‘unlashtirilgan (garmonik) indeks, o‘sish (pasayish) sur’ati % da[1]**




**2023- yilning sentabr oyida ayrim davlatlardagi yig‘ma INI, o‘sish (pasayish) sur’ati % da[2]**




[1]) https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/PRC_HICP_MANR__custom_3761882/bookmark/table?lang=en&bookmarkId=4ad27e6f-358a-4a3d-82a0-587d69a833eb

[2]) milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma’lumotlar asosida.

INI turli shakllarda dunyoning ko‘plab davlatlarida, shu jumladan, qo‘shni davlatlarda ham hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi doirasida milliy INIdan tashqari uyg‘unlashtirilgan (garmonik) INI ham e’lon qilinib, mazkur indeks uyg‘unlashtirilgan ko‘rsatkichlarga muvofiq hisob-kitob qilinadi va shu sababdan Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi iste’mol inflyatsiyasini xalqaro taqqoslash uchun maqbul statistik asos hisoblanadi.

Respublikada INIni hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko‘magi ostida joriy qilingan. INIni shakllantirishga “Iste’mol narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: Nazariya va amaliyot” (XVJ, IHRT, Yevrostat, BMT, YIK, Jahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste’mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste’mol narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 27- sentabrdagi 33-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo‘lib xizmat qiladi https://lib.stat.uz.

## TOVARLAR



2023- yil oktabrida tovarlar bo'yicha INI oy davomida **101,1 %** ni tashkil etdi. Joriy yil boshidan ushbu ko'rsatkich **106,5 %** ga yetdi. Yillik nisbatda tovarlar bo'yicha INI **109,4 %** darajasida shakllandi.

o'tgan oyga nisbatan




o'tgan yilning dekabriga nisbatan




o'tgan yilning oktabriga nisbatan




## XIZMATLAR



2023- yilning oktabr oyida xizmatlar bo'yicha qisqa muddatli INI **100,7 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning dekabriga nisbatan INI **105,5 %** ga, 2022- yilning oktabriga nisbatan **107,5 %** ga yetdi.

o'tgan oyga nisbatan




o'tgan yilning dekabriga nisbatan




o'tgan yilning oktabriga nisbatan




Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro'yxatga olish har oyning **10**- sanasidan **20**- sanasigacha amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni yig'ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig'ida narxlarni ro'yxatga olish har bir tovar va xizmat bo'yicha bir marta amalga oshiriladi va qo'shni davrlar uchun ro'yxatga olish oralig'i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIni hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta'siri chiqarib tashlanadi.




### oktabr oyida o‘tgan oyga nisbatan




### oktabr oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




### oktabr oyida o‘tgan yilning oktabriga nisbatan




Joriy yil oktabrida oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha qisqa muddatli INI **101,3 %** ni, nooziq-ovqat mahsulotlarda **101,0 %** ni va xizmatlarda **100,7 %** ni tashkil etdi. O‘tgan yilning dekabriga nisbatan INI oziq-ovqat mahsulotlarida **106,9 %**, nooziq-ovqatlarda **105,9 %**, xizmatlarda **105,5 %** darajasida qayd etildi. Yillik nisbatdagi INI oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarda **110,9 %** va **107,7 %** ni tashkil etgan bo‘lsa, xizmatlarda **107,5 %** ga yetdi.

Iste’mol narxlarining o‘zgarishi kuzatuvlari doirasida har oyda **10 mingdan** ortiq savdo nuqtalari va xizmat ko‘rsatish obyektlari kuzatiladi, **120 mingdan** ortiq narx kotirovkalari qayd etiladi.

oktabr

## YIG‘MA INI

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI

### o‘tgan oyga nisbatan







### o‘tgan yilning dekabriga nisbatan







### o‘tgan yilning oktabriga nisbatan







Meva-sabzavot mahsulotlari narxlari o‘zgarishini hisobga olmaganda 2023- yilning oktabridagi qisqa muddatli INI **100,9 %** (ularni hisobga olganda **101,0 %**) ni tashkil etdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan ushbu ko‘rsatkich **106,4 %**, 2022- yilning oktabriga nisbatan esa **108,5 %** darajasida qayd etildi.




Oziq-ovqat mahsulotlari narx o‘zgarishlarining kuzatiladigan tovarlar va xizmatlar 2023- yil oktabridagi qisqa muddatli yig‘ma INI o‘sish sur’atiga umumiy ta’siridagi hissasi **51,0 %** ga, nooziq-ovqat mahsulotlar hissasi **32,7 %** ga va xizmatlar hissasi **16,3 %** ga to‘g‘ri keldi.

INIni shakllantirish quyidagi ikkita ma’lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

1) uy xo‘jaliklarida o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma’lumotlari asosida shakllanadigan aholining iste’mol xarajatlari tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

2) hududlar, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida narxlarni qayd etish ma’lumotlari.

Shunday qilib, har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, aniq tovar yoki xizmat) yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga ta’siri pozitsiyaning narx o‘zgarishlari va xarajatlar tarkibidagi salmoq vaznidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

*) foiz darajasida

Ta’siri, f.d.

Umumiy ta’sirdagi ulushi, % da

### oktabr oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan







### oktabr oyida o‘tgan yilning oktabriga nisbatan







oziq-ovqat mahsulotlari    nooziq-ovqat mahsulotlar    xizmatlar

Hisob-kitoblarga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga uchta yirik guruhlarning 2022- yil dekabriga nisbatan yig‘ma INI o‘sish sur’atiga jami ta’sirining **47,2 %** i to‘g‘ri keldi (bir yil avval ushbu ko‘rsatkich **51,6 %** ni tashkil etgan). Xizmatlar narxlarining ta’siri uchta asosiy guruhlar orasida eng past bo‘ldi va uning ulushi **20,2 %** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatdagi yig‘ma INI o‘sish sur’ati asosan oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o‘sishi bilan bog‘liq (**51,4 %**).

2021- yil yanvar oyidan boshlab, Davlat statistika qo‘mitasi MDHga a’zo davlatlar orasida birinchilardan bo‘lib iste’mol narxlari indeksi (INI)ni to‘liq BMTning Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) 2018 xalqaro standartiga asoslangan, Maqsadlar bo‘yicha individual iste’mol tasniflagichi – 2018 (MIIT – 2018) asosida shakllantirishni joriy etdi. O‘zR MIIT – 2018 statistika faoliyati sohasida foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uy xo‘jaliklarining iste’mol xarajatlarini 13 ta bo‘limlarga guruhlashtirishni nazarda tutadi.

**oktabr oyida o‘tgan oyga nisbatan***



















* Statistik maqsadlarda 2020- yil uchun narxlar indeksi O‘zR MIIT–2018 bazasi tuzilmasida qayta hisob-kitob qilingan.

*Davomi*

oktabr oyida o‘tgan oyga nisbatan

**VII** Transport

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 101,4 |
| 2021- y. | 102,5 |
| 2022- y. | 100,4 |
| 2023- y. | 103,5 |



**VIII** Axborot va aloqa

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 100,4 |
| 2021- y. | 100,2 |
| 2022- y. | 98,9 |
| 2023- y. | 98,0 |



**IX** Dam olish, sport va madaniyat

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 101,0 |
| 2021- y. | 100,4 |
| 2022- y. | 101,6 |
| 2023- y. | 100,6 |



**X** Ta’lim sohasidagi xizmatlar

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 100,3 |
| 2021- y. | 99,9 |
| 2022- y. | 101,3 |
| 2023- y. | 100,6 |



**XI** Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 101,3 |
| 2021- y. | 100,9 |
| 2022- y. | 102,8 |
| 2023- y. | 102,7 |




**XII** Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 100,1 |
| 2021- y. | 100,0 |
| 2022- y. | 100,2 |
| 2023- y. | 100,3 |




**XIII** Maishiy tovarlar va xizmatlar va boshqa tovarlar va xizmatlar

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 101,0 |
| 2021- y. | 101,0 |
| 2022- y. | 101,5 |
| 2023- y. | 100,7 |



2023- yilning oktabrida bo‘limlar kesimidagi qisqa muddatli INI diapazoni **98,0 %** dan (“Axborot va aloqa” VIII bo‘lim) **102,7 %** gacha (“Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” XI bo‘lim) oraliqda joylashdi.

oktabr oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

## I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 110,0 |
| 2021- y. | 108,7 |
| 2022- y. | 111,3 |
| 2023- y. | 106,5 |

## II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 106,6 |
| 2021- y. | 109,0 |
| 2022- y. | 108,3 |
| 2023- y. | 108,6 |

## III. Kiyim va poyabzal

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 106,0 |
| 2021- y. | 103,4 |
| 2022- y. | 107,2 |
| 2023- y. | 104,0 |

## IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 104,4 |
| 2021- y. | 104,3 |
| 2022- y. | 104,5 |
| 2023- y. | 104,0 |

## V. Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 106,9 |
| 2021- y. | 106,1 |
| 2022- y. | 110,7 |
| 2023- y. | 105,8 |

95 101 107 113

## VI. Sog‘liqni saqlash

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 110,1 |
| 2021- y. | 107,2 |
| 2022- y. | 113,5 |
| 2023- y. | 108,4 |

## VII. Transport

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 107,1 |
| 2021- y. | 110,7 |
| 2022- y. | 106,6 |
| 2023- y. | 110,4 |

## VIII. Axborot va aloqa

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 102,4 |
| 2021- y. | 102,5 |
| 2022- y. | 101,0 |
| 2023- y. | 97,8 |

*Davomi*

**oktabr oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan**

**Dam olish, sport va madaniyat**

| Yil | INI, % |
|---|---|
| 2020- y. | 105,1 |
| 2021- y. | 107,7 |
| 2022- y. | 112,9 |
| 2023- y. | 107,8 |

IX

**Ta’lim sohasidagi xizmatlar**

| Yil | INI, % |
|---|---|
| 2020- y. | 104,9 |
| 2021- y. | 110,9 |
| 2022- y. | 103,4 |
| 2023- y. | 101,3 |

X

**Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari**

| Yil | INI, % |
|---|---|
| 2020- y. | 111,5 |
| 2021- y. | 110,1 |
| 2022- y. | 118,4 |
| 2023- y. | 116,6 |

XI

**Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar**

| Yil | INI, % |
|---|---|
| 2020- y. | 103,9 |
| 2021- y. | 100,2 |
| 2022- y. | 104,2 |
| 2023- y. | 102,8 |

XII

**Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar**

| Yil | INI, % |
|---|---|
| 2020- y. | 108,0 |
| 2021- y. | 108,9 |
| 2022- y. | 112,6 |
| 2023- y. | 108,3 |

XIII

“Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari” (II) va “Transport” (VII) bo‘limlaridan boshqa barcha bo‘limlarda 2023- yilning oktabridagi INI o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichdan past bo‘ldi.

O‘tgan yilning dekabriga nisbatan 100,0 % lik chegaradan past INI “Axborot va aloqa” (VIII) bo‘limida qayd etildi.

**IZOH:** *O‘zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INIni hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O‘zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo‘yicha qayta hisob-kitob qilingan.*

# O‘zR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI, % da

## oktabr oyida o‘tgan yilning oktabriga nisbatan

| | Bo‘lim | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
|---|---|---|---|---|
| I | Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtli ichimliklar | 114,0 | 115,7 | 110,4 |
| II | Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari | 111,2 | 110,2 | 111,0 |
| III | Kiyimlar va poyabzal | 105,7 | 109,3 | 106,2 |
| IV | Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari | 105,4 | 105,1 | 104,6 |
| V | Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish | 107,8 | 112,2 | 107,9 |
| VI | Sog‘liqni saqlash | 109,8 | 114,9 | 111,4 |
| VII | Transport | 113,2 | 109,2 | 113,6 |
| VIII | Axborot va aloqa | 103,4 | 101,4 | 98,5 |
| IX | Dam olish, sport va madaniyat | 109,4 | 114,4 | 109,2 |
| X | Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 111,7 | 104,0 | 102,0 |
| XI | Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari | 114,7 | 123,3 | 121,7 |
| XII | Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar | 100,4 | 104,3 | 103,0 |
| XIII | Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar | 111,3 | 114,5 | 109,6 |

2023- yilning oktabr oyida eng past yillik INI axborot va aloqa sohasidagi tovarlar va xizmatlarda (**98,5 %**) kuzatilgan bo‘lsa, restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari bo‘yicha INI **121,7 %** darajasida qayd etildi.

**IZOH:** *O‘zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INIni hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O‘zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo‘yicha qayta hisob-kitob qilingan. 2020- yilning oktabridagi 2019- yilning oktabriga nisbatan INI narxlarni taqqoslash uchun bazaning mavjud bo‘lmaganligi sababli hisoblanmagan.*

### oktabr oyida o‘tgan oyga nisbatan

**Donli ekinlar va yorma mahsulotlari**




**Go‘sht va go‘sht mahsulotlari**




**Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari**




**Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum**




**Yog‘lar va moylar**




**Mevalar va yong‘oqlar**




**Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar**




**Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar**




**Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari**




**Spirtsiz ichimliklar**




2023- yilning oktabrida “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo‘limi guruhlari kesimida qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **98,5 %** dan **106,5 %** gacha chegarada joylashdi.

100,0 % lik darajadan past qisqa muddatli INI oy davomida “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” (**98,5 %**), “Yog‘lar va moylar” (**99,6 %**), “Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari” (**99,5 %**) guruhlarida qayd etildi.

Asosiy turdagi mevalarni yig‘ib olish mavsumining tugashi “Mevalar va yong‘oqlar” guruhida kutilgan narxlar oshishiga sabab bo‘ldi. Shunday qilib, “Mevalar va yong‘oqlar” guruhida 2023- yilning oktabr oyidagi qisqa muddatli INI **106,5 %** ga yetdi.

Shunga o‘xshash holat sut mahsulotlari va tuxum narxlarida ham kuzatilib, oylik INI **103,2 %** ni tashkil etdi.

Bo‘limning boshqa guruhlaridagi oylik INI sezilarli darajada past bo‘ldi va **101,2 %** dan oshmadi.

oktabr oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

**Donli ekinlar va yorma mahsulotlari**




**Go‘sht mahsulotlari**




**Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari**




**Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum**




**Yog‘lar va moylar**




**Mevalar va yong‘oqlar**




**Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar**




**Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar**




**Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari**




**Spirtsiz ichimliklar**






Yog‘-moy va sabzavot mahsulotlari narxlarining joriy yil oktabrdagi o‘rtacha darajalari 2022- yil dekabridagi darajadan hanuz pastligicha qoldi. 2023- yil oktabrida “Yog‘lar va moylar” guruhida INI **91,5 %** ni, “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” guruhida esa **91,3 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-oktabridagiga qaraganda donli ekinlar va yorma mahsulotlari (**109,7 %** ga **127,9 %**), hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (**107,6 %** ga **125,0 %**) INI ko‘rsatkichi sezilarli darajada past bo‘ldi.

Shu bilan bir qatorda, mevalar va yong‘oqlar bo‘yicha 2023- yilning yanvar-oktabridagi INI ko‘rsatkichi o‘tgan yillarga qaraganda baland bo‘ldi.

oktabr oyida o‘tgan yilning oktabriga nisbatan

**Donli ekinlar va yorma mahsulotlari**




**Go‘sht mahsulotlari**




**Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari**




**Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum**




**Yog‘lar va moylar**




**Mevalar va yong‘oqlar**




**Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar**




**Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar**




**Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari**




**Spirtsiz ichimliklar**




2023- yilning oktabrida “Donli ekinlar va yorma mahsulotlari” (**112,6 %** ga **131,4 %**), “Yog‘lar va moylar” (**90,0 %** ga **114,6 %**) va “Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar” (**107,3 %** ga **130,6 %**) guruhlarida yillik nisbatdagi INI o‘tgan yilning oktabridagi mos ko‘rsatkichdan sezilarli darajada past bo‘ldi.

I- bo‘lim guruhlari orasida “Yog‘lar va moylar” guruhidagi o‘rtacha narxlar darajasi o‘tgan yilning oktabridagi darajadan pastligicha saqlanib qoldi.



# 2023- YILNING OKTABRIDA ALOHIDA TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % da

| | 2023- yilning sentabriga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| Guruch va guruch oqshog‘i | 99,5 % | 140,0 % | 143,8 % |
| Bug‘doy uni | 98,4 % | 99,7 % | 101,2 % |
| Mol go‘shti (suyakli) | 101,1 % | 109,8 % | 111,9 % |
| Qo‘y go‘shti | 100,9 % | 109,6 % | 111,6 % |
| Sut (yangi sog‘ilgan) | 101,1 % | 112,6 % | 117,7 % |
| Tuxum | 110,5 % | 108,9 % | 122,5 % |
| Kungaboqar yog‘i | 99,2 % | 83,7 % | 80,5 % |
| Shakar | 99,8 % | 109,8 % | 103,1 % |

**o‘tgan oyga nisbatan**




**o‘tgan yilning dekabriga nisbatan**




**o‘tgan yilning oktabriga nisbatan**






Bozorning yangi hosil bilan to‘yinishi sabzi, karam, qovoq, lavlagi, piyoz kabi mahsulotlar narxlarining pasayishiga sabab bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda, pomidor, baqlajon, bodring, bulg‘or qalampiri kabi sabzavotlar narxlari oshgani kuzatildi.

Baqlajon va bulg‘or qalampiri joriy yil boshidan va o‘tgan yilning oktabriga nisbatan narxlar pasayishi bo‘yicha yetakchilikni ushlab qoldi.

# 2023- YIL OKTABR OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLI ICHIMLIKLAR ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISH (PASAYISH) SUR’ATIGA TA’SIRI, f.d.da

**o‘tgan oyga nisbatan**

Yig‘ma INI o‘sish sur’atiga jami ta’siri **+0,47 f.d.**




**2022- yilning dekabriga nisbatan**

Yig‘ma INI o‘sish sur’atiga jami ta’siri **+2,59 f.d.**



# 2023- YIL OKTABR OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLI ICHIMLIKLAR ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH (PASAYISH) SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.da




Joriy yilning oktabr oyida sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar, yog'lar va moylar narxlarining pasayishi qisqa muddatli INIni tutib turuvchi omil bo'ldi (jami ta'siri **-0,08 f.d.**). Mevalar va yong'oqlar narxlarining mavsumiy o'sishi yig'ma ko'rsatkichga **+0,24 f.d**. ta'sir etdi.

2023- yilning yanvar-oktabrida sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar hamda yog'lar va moylar (**-0,62 f.d.**) guruhlarida narxlarning pasayishi INIga asosiy pasaytiruvchi ta'sir ko'rsatdi. O'sish sur'atiga yuqori ta'sir ko'rsatgan guruhlar orasida go'sht, donli ekinlar va yorma mahsulotlari, mevalar va yong'oqlar (**+2,38 f.d.**) guruhlarini alohida ko'rsatish mumkin.

Yillik nisbatdagi yig'ma INI o'sish sur'atiga donli ekinlar va yorma mahsulotlari, go'sht mahsulotlari (**+2,13 f.d.**) narx o'zgarishlari yuqori ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, pasayishiga yog'lar va moylar (**-0,29 f.d.**) guruhi ta'sir ko'rsatdi.

**oktabr** | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning oktabriga nisbatan*

## SPIRTLI ICHIMLIKLAR




## TAMAKI MAHSULOTLARI




## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning oktabridagi INI, % da




Joriy yilning oktabr oyida “Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari” (II) bo‘limida qisqa muddatli INI tebranishlari **100,3 %** dan (sigaretlar) **101,3 %** gacha (aroq) chegarada joylashdi.

Xomashyo narxlarining oshishi va oqibatda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar narxlarining ko‘tarilishi II bo‘lim tovarlari iste’mol narxlarining oshishida aks etdi. Umuman olganda, o‘n oy davomida spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari INI **106,6 %** dan (vino) **110,5 %** gacha (sigaret) diapazonda joylashdi.

**oktabr** | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning oktabriga nisbatan

## KIYIMLAR




## POYABZAL




## Asosiy turlar bo'yicha 2023- yilning oktabridagi INI, % da

2023- yilning sentabriga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning oktabriga nisbatan




Joriy yilning oktabrida "Kiyim va poyabzal" (III) bo'limida INI tebranishlari **99,8 %** dan (erkaklar uchun futbolkalar) **106,3 %** gacha (kimyoviy tozalash) atrofida joylashdi. Narxlarning tebranishi bir qator omillar orasida alohida turdagi kiyimlar va poyabzallarga mavsumiy talabning o'zgarishi hamda ayrim turdagi xizmatlar (masalan, kimyoviy tozalash xizmatlari va b.) iste'molining ortishi bilan izohlanadi.

**oktabr** | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning oktabriga nisbatan

## TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI*




*) kuzatuvga 2021- yilda kiritilgan

## TURAR JOYLARGA XIZMAT KO'RSATISH, TA'MIRLASH VA QO'RIQLASH




## SUV TA'MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG'LIQ BOSHQA XIZMATLAR




## ELEKTR, GAZ VA YONILG'INING BOSHQA TURLARI




Joriy yilning oktabrida mahalliy hokimiyat organining qarori bilan Andijon viloyatida sovuq suv yetkazib berish va kanalizatsiya xizmatlari tariflari oshirildi (o'rtacha **93,8 %** ga). Mazkur hududning ushbu xizmat iste'moli bo'yicha aholi jami xarajatlaridagi ulushini hisobga olgan holda, sovuq suv va kanalizatsiya xizmatlarining INI oy davomida respublika bo'yicha o'rtacha **107,8 %** ni tashkil etdi.

Turar joylarga xizmat ko'rsatish, ta'mirlash uchun asosiy turdagi materiallar bo'yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni joriy yilning oktabrida **99,5 %** dan (sement) **100,9 %** gacha (metall quvurlar, sgon va muftatlar) chegarada joylashdi.

## MEBEL VA UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI



| oktabr | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,7 | 104,0 | |
| 2021- y. | 100,4 | 104,9 | 106,4 |
| 2022- y. | 100,8 | 109,3 | 111,0 |
| 2023- y. | 100,5 | 104,9 | 106,4 |

## MAISHIY USKUNALAR



| oktabr | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,6 | 104,8 | |
| 2021- y. | 100,6 | 108,3 | 109,8 |
| 2022- y. | 101,2 | 108,1 | 108,9 |
| 2023- y. | 100,5 | 105,7 | 107,5 |

## UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI



| oktabr | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 101,0 | 106,2 | |
| 2021- y. | 100,8 | 103,9 | 106,1 |
| 2022- y. | 100,8 | 111,0 | 113,0 |
| 2023- y. | 100,4 | 105,1 | 107,0 |

## KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR



| oktabr | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,4 | 105,8 | |
| 2021- y. | 100,7 | 105,2 | 106,3 |
| 2022- y. | 100,7 | 109,5 | 110,5 |
| 2023- y. | 100,5 | 105,6 | 106,5 |

## SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO‘ZG‘OR ANJOMLARI



| oktabr | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 101,1 | 105,9 | |
| 2021- y. | 100,5 | 105,0 | 106,8 |
| 2022- y. | 100,8 | 108,1 | 109,6 |
| 2023- y. | 100,7 | 104,7 | 106,3 |

## UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR



| oktabr | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,8 | 112,6 | |
| 2021- y. | 100,8 | 107,3 | 109,0 |
| 2022- y. | 102,1 | 114,7 | 116,1 |
| 2023- y. | 100,9 | 107,2 | 110,4 |

**oktabr** | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning oktabriga nisbatan

## DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI






## AMBULATORIYADA DAVOLASH BO'YICHA XIZMATLAR






## STATSIONARDA DAVOLASH BO'YICHA XIZMATLAR






## SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR






"Sog'liqni saqlash" (VI) bo'limiga kiruvchi tovarlar bo'yicha joriy yilning oktabr oyidagi qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **100,3 %** dan (vitaminlar) **101,4 %** gacha (bog'lash uchun materiallar, ko'z uchun yordamchi vositalar, tibbiy diagnostika mahsulotlari va antigistamin dorilar) oraliqda joylashdi.

## oktabr

### TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH




| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,1 | 108,7 | – |
| 2021- y. | 100,1 | 100,9 | 101,0 |
| 2022- y. | 100,1 | 108,6 | 108,8 |
| 2023- y. | 100,1 | 102,3 | 102,7 |

### SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH




| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 101,5 | 104,6 | – |
| 2021- y. | 104,9 | 118,8 | 122,9 |
| 2022- y. | 99,4 | 105,8 | 108,9 |
| 2023- y. | 104,9 | 113,5 | 112,2 |

### YO'LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI



| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 101,8 | 109,9 | – |
| 2021- y. | 100,0 | 103,8 | 105,3 |
| 2022- y. | 101,5 | 105,8 | 108,5 |
| 2023- y. | 102,7 | 109,5 | 119,4 |

### TOVARLARNI TASHISH BO'YICHA XIZMATLAR




| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,9 | 106,4 | – |
| 2021- y. | 100,7 | 107,0 | 110,5 |
| 2022- y. | 101,5 | 116,3 | 117,4 |
| 2023- y. | 102,6 | 107,0 | 107,8 |

## Asosiy turlar bo'yicha 2023- yilning oktabridagi INI, % da

| | 2023- yilning sentabriga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| Benzin | 104,1 | 109,8 | 99,1 |
| Propan | 103,6 | 114,3 | 110,8 |
| Metan | 112,6 | 112,3 | 126,4 |
| Avtomobil transportida yo'lovchi tashish tarnsporti | 103,5 | 109,0 | 118,7 |
| Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish | 100,2 | 102,7 | 104,9 |
| Havo transportida yo'lovchi tashish | 99,6 | 116,2 | 137,8 |

## AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI



| oktabr | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,7 | 104,4 | |
| 2021- y. | 100,2 | 105,5 | 106,9 |
| 2022- y. | 100,0 | 105,2 | 106,1 |
| 2023- y. | 100,0 | 101,1 | 102,6 |

## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR



| oktabr | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,2 | 101,2 | |
| 2021- y. | 100,1 | 100,9 | 101,4 |
| 2022- y. | 98,2 | 98,8 | 98,9 |
| 2023- y. | 96,9 | 96,1 | 96,3 |

## Asosiy turlar bo'yicha 2023- yilning oktabridagi INI, % da




| | 2023- yilning sentabriga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| Mustahkam o'rnatilgan telefon uskunalari | 100,2 | 103,8 | 105,7 |
| Mobil telefon uskunalari | 99,8 | 100,2 | 102,0 |
| Kompyuterlar, noutbuklar va planshetlar | 100,2 | 101,4 | 102,4 |
| Periferik uskunalar | 100,4 | 103,9 | 105,9 |
| Mobil aloqa xizmatlari | 95,3 | 93,3 | 93,3 |
| Kompleks telekommunikatsiya xizmatlari | 100,0 | 102,1 | 102,8 |
| Uskunalarni ta'mirlash | 100,7 | 110,9 | 113,8 |

Axborotlashtirish sohasidagi xizmatlar INI 2023- yilning oktabrida 100,0 % dan past darajada qayd etilib, kuzatiladigan qator tarif rejalarida tarifni shakllantiruvchi xususiyatlarning qayta ko'rib chiqilishi natijasida ko'rsatiladigan xizmatlar bir birligi qiymatining pasayganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, mobil aloqa ximatlari bo'yicha INI oy davomida respublika bo'yicha o'rtacha **95,3 %** ni tashkil etdi.

**oktabr** | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning oktabriga nisbatan

## DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




## MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




## KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH




## BOG‘DORCHILIK MAHSULOTLARI, UY HAYVONLARI




## GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI




## DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR




2023- yilning oktabr oyi davomida **0,3-0,8 %** ga narxlarning pasayishi ayrim turdagi qog‘oz mahsulotlarida qayd etildi.

INI yuqori ko‘rsatkichi hayvonot bog‘lari xizmatlarida (**110,0 %**) qayd etilib, bu Qashqadaryo viloyatida hayvonot bog‘iga kirish uchun chipta narxlarining oshishi bilan bog‘liq.

**oktabr**

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM



| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,0 | 115,2 | |
| 2021- y. | 100,0 | 113,2 | 113,2 |
| 2022- y. | 100,2 | 101,1 | 101,2 |
| 2023- y. | 100,0 | 98,4 | 98,4 |

## OLIY TA'LIM



| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,0 | 100,8 | |
| 2021- y. | 99,5 | 109,8 | 109,8 |
| 2022- y. | 101,8 | 101,9 | 101,9 |
| 2023- y. | 100,3 | 100,5 | 100,8 |

## BOSQICHLARGA BO'LINMAGAN TA'LIM




| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 101,1 | 103,4 | |
| 2021- y. | 100,5 | 110,2 | 113,3 |
| 2022- y. | 101,8 | 107,9 | 110,0 |
| 2023- y. | 101,6 | 105,3 | 107,4 |

## Asosiy turlar bo'yicha 2023- yilning oktabridagi INI, % da

| | 2023- yilning sentabriga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| Davlat MTT xizmatlari | 100,0 | 97,2 | 97,2 |
| Xususiy MTT xizmatlari | 100,1 | 102,7 | 102,4 |
| Nodavlat OTMda o'qitish | 101,5 | 102,2 | 103,5 |
| Repetitorlar xizmatlari | 102,3 | 106,6 | 108,2 |
| O'quv kurslarida o'qitish | 101,0 | 104,2 | 106,6 |

Yangi o'quv yilining boshlanishi bilan odatiy tarzda qo'shimcha ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi va natijada ushbu xizmatlar narxlarining oshishi kuzatiladi. Shunday qilib, repetitorlar xizmatlari INI oy davomida 102,3 % ga, o'quv kurslari bo'yicha 101,0 % ga yetdi. Xususiy OTMda o'qitish uchun to'lov qiymati respublika bo'yicha o'rtacha 1,5 % ga o'sgan bo'lsa, davlat OTMda ushbu ko'rsatkich o'tgan oy darajasida saqlanib qoldi.

**oktabr** | oʻtgan oyga nisbatan | oʻtgan yilning dekabriga nisbatan | oʻtgan yilning oktabriga nisbatan

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BOʻYICHA XIZMATLAR






## MEHMONXONALAR XIZMATLARI







## Asosiy turlar boʻyicha 2023- yilning oktabridagi INI, % da

2023- yilning sentabriga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning oktabriga nisbatan




Joriy yilning oktabrida kafelardagi tayyor taomlar narxlari respublikaning barcha hududlarida **0,5-3,9 %** chegarasida, oshxonalardagi taomlar **1,1-4,6 %** chegarasida, tez pishar taomlar tayyorlanadigan oshxonalarda **0,7-4,9 %** oraligʻida oshdi.

Mehmonxonalar xizmati narxlari boʻyicha respublikaning ikkita hududida (Jizzax viloyati va Toshkent shahrida) narxlar oshgan boʻlsa, dam olish markazlari xizmati narxlari joriy yilning sentabr oyidagi darajada saqlanib qoldi.

## oktabr

### SUG‘URTA













### MOLIYAVIY XIZMATLAR












## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning oktabridagi INI, % da




2020- yildan boshlab kuzatilayotgan sug‘urta xizmatlari bozoridagi holat narxlar barqarorligini saqlab qoldi.

Moliyaviy xizmatlar orasida joriy yilning oktabr oyida bank muassasalari xizmatlari (**100,8 %**) hamda banklar orqali pul o‘tkazmalari xizmatlari (**100,6 %**) narxlarida past darajadagi o‘sish kuzatildi.

**oktabr** — o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning oktabriga nisbatan

## MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR




## SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR




## BOSHQA XIZMATLAR




## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning oktabridagi INI, % da




Joriy yil oktabrida “Shaxsiy foydalanish uchun boshqa priborlar, buyumlar va tovarlar” guruhiga kiruvchi tovarlarning qisqa muddatli INI ko‘rsatkichi **100,9 %** dan oshmadi.

Boshqa xizmatlar orasida joriy yilning oktabrida narx oshishi ikkita hududdagi diniy xizmatlarda kuzatilib, ushbu xizmat narxlari respublika bo‘yicha o‘rtacha **0,2 %** ga, shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **1,8 %** ga, Xorazm viloyatida **1,2 %** ga o‘sdi.

Yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta’sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o‘zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

**Narx indeksi salmog‘i** – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o‘lcham bo‘lib, ular yordamida:

- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig‘indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;
- avvaldan o‘zaro solishtirib bo‘lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;
- qo‘llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o‘rganilayotgan hodisa bo‘yicha narx o‘zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.




Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtli ichimliklar narx o‘zgarishlarining 2023- yil oktabridagi qisqa muddatli yig‘ma ko‘rsatkich o‘sish sur’atiga ta’siri yuqori bo‘ldi. Ularning hissasiga umumiy ta’sir darajasining **45 %** dan ortig‘i to‘g‘ri keldi.

“Axborot va aloqa” bo‘limida narxlar pasayishi (**-0,06 f.d.**) tutib turuvchi omil bo‘ldi.




2022- yilning dekabriga nisbatan yig‘ma INI o‘sish sur’atining salkam **40 %** idan ortig‘i oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narx o‘zgarishlari bilan ta’minlandi. Ularning ta’siri **6,23** f.d. umumiy o‘sish sur’atida **2,59** **f.d.** ni tashkil etadi.

“Transport” va “Sog‘liqni saqlash” bo‘limlaridagi narx o‘zgarishlari ham salmoqli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu bo‘limlar 2022- yil dekabriga nisbatan yig‘ma INI jami **1,41** f.d. o‘sish sur’atini yoki umumiy ta’sir darajasining **22,6 %** ini ta’minladi.

“Axborot va aloqa” bo‘limida narxlarning pasayishi tutib turuvchi omil bo‘ldi va buning ta’sirida yig‘ma INI **0,07** **f.d.** pasaydi.

# 2023- YIL OKTABR OYIDA O‘zR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA NARX O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISHIGA TA’SIRI

**2023- yil oktabrdagi yillik yig‘ma INI o‘zgarishiga ta’siri, f.d.** **+8,98**




2022- yilning oktabriga nisbatan yig‘ma INI umumiy o‘sish sur’atining **46,4 %** i oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narx o‘zgarishlari bilan bog‘liq. Ularning ta’siri **4,17 f.d.** ni tashkil etdi.

Transport sohasida narxlar oshishining umumiy ta’sir darajasidagi ulushi **12,5 %** ni, sog‘liqni saqlash sohasida **8,4 %** ni tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-oktabridagi holat kabi aloqa xizmatlari narxlarining pasayishi yillik INI tutib turuvchi omil bo‘lib xizmat qildi va ko‘rsatkich pasayishida **0,05 f.d.** aks etdi.